


FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxonalar va tashkilotlar soni


(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil yanvar-mart oyida)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **6,9** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,5 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



203

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

9 658

Ishlab chiqarish sanoati

71

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

124

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 10,1 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,5 %ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 107,7 %ga (jami sanoatdagi ulushi 96,1 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 103,0 %ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 109,2 %ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 102,5 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,8** foizga oshdi






Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar

Kichik korxonalar



10,8 foizga oshdi




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar



18,6 foizga oshdi




12,7 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **1,3** barobarga oshdi




Xususiy korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




(2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofimlar

Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1016



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

52



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

68



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



171 yashash bo'yicha xizmatlar




2 429 Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,4 %ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 113,9 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,4 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 123,0 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,6 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar







Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar







Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,1** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofimlar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




11,1 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




7,7 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



23,1 foizga oshdi




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 6,2 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 678 taga yoki 112,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5,8 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 608 taga yoki 111,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning mart oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 276 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 74 taga yoki 78,9 %ga kamaygan.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra 24,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 mingtaga yoki 118,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 mingtaga yoki 117,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1295 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121 taga yoki 91,5 %ga kamayganni ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra 555 tani tashkil etib, ulardan 547 tasi yoki 101,5 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 82 taga yoki 117,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-mart oyida viloyatimizda 11 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil yanvar-mart oyida, birlikda)



**Fargʻona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni**
(2022-yil 1-aprel holatiga koʻra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		<i>qoʻshma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Belorussiya Respublikasi	5	2	3
Ozarbayjon Respublikasi	7	3	4
Qirgʻiziston Respublikasi	20	11	9
Qozogʻiston Respublikasi	6	4	2
Rossiya Federatsiyasi	76	48	28
Tojikiston Respublikasi	8	4	4
Ukraina Respublikasi	3	2	1




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami	212	317	429	465	547
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4	18	29	24	31
Sanoat	151	197	246	260	286
Qurilish	5	8	11	20	27
Savdo	19	46	74	88	117
Tashish va saqlash	7	9	12	13	16
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	13	15	14	14
Axborot va aloqa	3	4	4	4	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	7	10	9	10
Boshqa turlar	10	15	28	33	43

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

21

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Farg'ona viloyati	547	354	193
Oltiariq tumani	25	18	7
Qo'shtepa tumani	9	8	1
Bag'dod tumani	16	12	4
Buvayda tumani	11	8	3
Beshariq tumani	12	5	7
Quva tumani	22	13	9
Uchko'prik tumani	22	14	8
Rishton tumani	12	9	3
So'x tumani	8	7	1
Toshloq tumani	19	12	7
O'zbekiston tumani	28	24	4
Farg'ona tumani	29	19	10
Dang'ara tumani	17	9	8
Furqat tumani	8	6	2
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	169	100	69
Qo'qon shahar	73	40	33
Quvasoy shahar	34	27	7
Marg'ilon shahar	28	22	6

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (16,5 %), Qo'qon shahar (11,8 %), Marg'ilon shahar (9,1 %), Uchko'prik tumani (5,1 %), Oltiariq tumani (4,9 %), Dang'ara tumani (4,9 %), Quva tumani (4,8 %), O'zbekiston tumani (4,8 %), Buvayda tumani (4,7 %), Toshloq tumani (4,5 %), Farg'ona tumani (4,1 %), Bag'dod tumani (3,8 %), Rishton tumani (3,7 %), Beshariq tumani (3,5 %), Quvasoy shahar (3,4 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Furqat tumani (2,6 %), So'x tumani (2,4 %), Yozyovon tumani (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)


2022- yil yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (15,9 %), Qo'qon shahar (9,6 %), Marg'ilon shahar (6,5 %), Oltiariq tumani (6,1 %), Toshloq tumani (5,6 %), Dang'ara tumani (4,8 %), O'zbekiston tumani (4,6 %), Beshariq tumani (4,5 %), Rishton tumani (4,5 %), Quva tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (4,4 %), Uchko'prik tumani (4,3 %), Buvayda tumani (4,1 %), Qo'shtepa tumani (3,9 %), Bag'dod tumani (3,8 %), Furqat tumani (3,6 %), Quvasoy shahar (3,4 %), So'x tumani (3,2 %), Yozyovon tumani (2,7 %), hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

23




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)



2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish etib belgilangan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 244-65-76**